



**O'QUVCHILARNI PIRLS MATNLARIDA BAYON ETILGAN
AXBOROTLARNI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH JARAYONI**

Usmonova Yulduz Abdusaid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi bosqich magistranti

0009-0007-8803-895X

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS matnlarida bayon etilgan axborotlarni tahlil qilishga o'rgatish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan metod hamda usullar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, matn, axborot, kontent, ko'nikma, integratsiya, veb-sayt, tahlil qilish, tanqid qilish.

Аннотация. В данной статье исследуются метод и методы, которые можно использовать в процессе обучения учащихся начальных классов анализу информации, представленной в текстах PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, текст, информация, контент, навыки, интеграция, веб-сайт, анализ, критика.

Abstract. In this article, the method and methods that can be used in the process of teaching primary school students to analyze the information presented in PIRLS texts are researched.

Keywords: PIRLS, text, information, content, skills, integration, website, analysis, critique.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi, unga ko'ra o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan. [3] Shunday xalqaro tadqiqot dasturlaridan biri PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholovchi dastur hisoblanadi. PIRLS dasturining asosiy maqsadi 2 ta:

1. Badiiy tajriba orttirish.



2. Axborot olish va undan foydalanish.

PIRLS tadqiqoti quyidagi tushunish jarayonlarini o'z ichiga oladi:

- 1) diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- 2) to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;
- 3) g'oyalar va axborotni talqin qilish hamda uyg'unlashtirish;
- 4) kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. [1]

Demak, o'quvchilar PIRLS matni bilan tanishganlaridan so'ng faqatgina bitta qolipdagi savollarga javob bermaydilar. Ulardan aniq ma'lumotni topish, matndan xulosa chiqarish, axborotlarni umumiyashtirish yoki matn elementlarini tanqid qilish so'ralishi mumkin. Buning uchun o'quvchilarda matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishimiz zarur. O'quvchilarga matndagi voqealar ketma-ketligini ko'r-ko'rona yodlatish orqaligina kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Quyida PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun qo'llaniladigan tizim berilgan:

- Javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi.
- Erkin javob berishi kerak bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha baholanadi. Natijalarni qayta ishlash uchun zamonaviy sinov nazariyasi qo'llaniladi. [2]

O'quvchining tushunish jarayoni va o'qishdan ko'zlagan maqsadlariga qaratilgan PIRLS baholash dasturining foizli ko'rsatkichlarda berilishi quyidagilarni inobatga olib tuzilgan har bir matnga oid savollar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

Izlash va topish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda 3 tadan 4 tagacha savol/topshiriqlar berilishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish: 5 balldan 6 ballgacha (4 yoki 5 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir yoki ikki ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Talqin qilish va umumlashtirish: 5 balldan 6 ballgacha (2 yoki 3 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan 2 yoki 3 ballik javob yozishni talab etadigan uzunroq ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Baholash va tanqidiy baho berish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda odatda bir necha har xil turdagi savollar beriladi, shu sababli savollar 4 ta muqobil javob variantidan tortib bitta javob yozishni talab qiladigan uch ballik ochiq savollargacha bo'lishi mumkin). [4]

Bundan ko'rinadiki, o'quvchilardan matnni tahlil qilib, fikrlab javob berishni talab qiladigan savollar uchun ko'proq ball ajratilgan. Afsuski, PIRLS 2021 tadqiqotlari doirasida tashkil etilgan sinovlarda mamlakatimiz o'quvchilari yuqori ko'rsatkichlarga erisha olmadilar.

O'qish ko'nikmalari bo'yicha solishtirilganda O'zbekistonlik o'quvchilar ochiq aytilgan ma'lumotni topish va talqin qilish ko'nikmalari bo'yicha yuqoriroq natija (441 ball) qayd



etishgan. Nisbatan yuqoriroq darajadagi ko'nikma hisoblanuvchi talqin qilish, integratsiya (ma'lumotlarni birlashtirish) va baho berish ko'nikmalari bo'yicha esa sezilarli past natija (430 ball) qayd qilingan. [5]

Bu muammoga yechim sifatida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida quyidagi metod hamda usullarni qo'llashni keltirish mumkin:

1. Faqat bir xil turdagi matnlar bilan ishlashga chek qo'yish lozim. Sababi raqamli muhitga o'tish bilan PIRLS 2021 dasturiga kiritilgan matn turlarining xilma-xilligini oshirish maqsad qilingan. Masalan, PIRLS spektakllar, jurnallar va gazetalaridagi matnlarni, shuningdek, an'anaviy xatlar, elektron pochta xabarlari va qisqa xabarlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lumotlar turli formatlarda taqdim etilishi mumkin. Hatto, asosan, matn orqali taqdim etiladigan ma'lumot qismlarida faktlarni hujjatlash uchun jadval yoki tavsifni tasvirlash uchun rasm bo'lishi mumkin. Bosma materiallar ham, veb-saytlar ham ro'yxatlar, diagrammalar orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Gibrid matnlarda yangi emas, lekin yangi media va raqamli matnlar tomonidan olib borilgan aloqa uslublari va usullarining tez o'rganish tufayli ko'paygan ishlanmalar mavjud. [6] Shuning uchun ham o'quvchilarga berilayotgan matnlarda real hayotga bog'langan voqea va ma'lumotlar aks etishi kerak.

2. O'quvchilarga badiiy matn bilan tanishib bo'lganlaridan so'ng tahlil qilish jarayonida asardagi voqealar tartibi, vaqti, o'rni turli yo'llar bilan berilishini, bosh qahramonlar hamda ikkinchi darajali qahramonlarning farqini o'rgatish lozim. Topshiriqning matni va savollari bilan bir vaqtda ishlay olishlariga erishish kerak. Shunda ular diqqat-e'tiborlarini to'g'ri taqsimlashni o'rganadilar.

3. Axborot matnlari yuzasidan berilgan topshiriqlarda yuqori natijaga erishish uchun o'quvchilar sinfdan tashqari holatlarda ham mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni internetdan izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Ya'ni ular o'zlari ehtiyoj sezgan axborotlarni ishonchli veb-saytlardan topa olishi, ulardan foydalanib o'rgangan yangi ma'lumotlarini boshqalarga ham ulasha olishi kerak. Shu orqali ularning axborot matnlarida bayon etilgan ma'lumotlarni tushunish darajasining oshishiga erishiladi.

4. O'quvchilardan erkin fikrlab javob berishni talab etadigan topshiriqlar ustida ko'proq ishlash lozim. Har bir o'quvchining o'tilgan mavzu yuzasidan kichik bo'lsa ham fikr bildirishiga erishish kerak. Javob berishda o'z so'zlaridan foydalanib, alohida jihatlariga e'tibor qaratayotgan, savolga yangi nuqtayi nazardan qarab javob berayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish qolgan o'quvchilarda ham shunday ko'nikma shakllanishiga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar o'quvchilar bilan davomli ishlashni talab etadi, albatta. Lekin ular o'quvchilarda matnlarni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasini samarali o'stiradi. Shu orqali ularni kelgusi hayot faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiramiz, qolaversa, navbatdagi PIRLS tadqiqotlarida mamlakatimiz o'quvchilarining munosib ishtirokini ta'minlagan bo'lamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019.
2. Xudoyqulova Fazilat Bo'riyevna, Abdaliyeva Barno Ilxom qizi. Xalqaro PIRLS baholash dasturi. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani, may 15-16, 2023. 182-bet.
3. Abdullayeva Feruza Nurillayevna. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda PISA va TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarning roli. "Maktabgacha ta'lim-Maktab-Oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2022-yil, 9-aprel. 360-bet.
4. Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin. PIRLS 2016 Item Writing Guidelines.
5. <https://www.gazeta.uz/2023/05/17/pirls/>
6. <https://pirls2021.org/>